

# TAQIQLANGAN RO'YXATGA KIRITILGAN ASOSIY O'ZGARISHLAR VA ULARNING IZOHLARI



*2025 yilgi taqiqlangan ro'yxat*

## HAMMA VAQT (MUSOBAQA VA MUSOBAQADAN TASHQARI DAVRLARDA) TAQIQLANGAN

### TAQIQLANGAN MODDALAR

#### S0. Tasdiqlanmagan moddalar

- S-107 va S48168 (ARM210)lar S0 sinfiga ryanodine receptor-1-calstabin kompleksi stabilizatorlari namunalari sifatida qo'shildi. Ryanodin receptor-1-calstabin kompleksi skelet muskul funktsiyasini qo'llab-quvvatlovchi sifatida xizmat qilib, kaltsiy saqlovchi va chiqaruvchi asosiy modda hisoblanadi.

#### S3. Beta-2 Agonistlar

- Ingatlasiyon formoterolning mumkin bo'lgan jismoniy faoliyatini kuchaytiruvchi dozalari haqidagi yaqinda chiqqan nashrga<sup>1</sup> asoslanib, ergogen ta'sirga erishmaslik uchun qabul qilish oralig'i o'zgartirildi. Ushbu yangi 12 soatlik dozalash oralig'i ishlab chiqaruvchilarning mazkur dori vositasidan foydalanish bo'yicha tavsiyalariga mos keladi; qo'llaniladigan maksimal doza o'zgarmas qilib qoldirildi va 24 soat davomida 54 mkg ni tashkil qiladi.

<sup>1</sup> Jeppesen JS, Jessen S, Thomassen M, Backer V, Bangsbo J, Hostrup M. Inhaled beta2-agonist, formoterol, enhances intense exercise performance, and sprint ability in elite cyclists. Scand J Med Sci Sports. 2024;34:e14500.doi:10.1111/smss.14500

## S4. Gormon va Metabolik Modulyatolar

- Elacestrant anti-estrogen namunasi sifatida qo'shildi.
- AMP tomonidan faollashtiriladigan protein kinaza aktivatoriga misol sifatida 12s rRNK-C (MOTS-C) mitoxondriyal ochiq o'qish ramkasi qo'shildi.
- Aniqlik uchun s519 va s597 insulin mimetiklari namuna sifatida qo'shildi. Insulin mimetik birikmalar yoki selektiv insulin retseptor modulyatorlari (SIRMLar) insulin retseptorlari bilan bog'lanish orqali insulin ta'siriga o'xshash ta'sir qiladi<sup>2</sup>.

## S5. Diuretiklar va Niqoblovchi Vositalar

- Ksipamid diuretiklarga misol sifatida qo'shildi.

<sup>2</sup>a) Schäffer L, Brissette RE, Spetzler JC, Pillutla RC, Østergaard S, Lennick M, Brandt J, Fletcher PW, Danielsen GM, Hsiao KC, Anderssen AS, Dedova O, Ribel U, Hoeg-Jensen T, Hansen PH, Blume AJ, Markussen J, Goldstein NI. Assembly of high-affinity insulin receptor agonists and antagonists from peptide building blocks. Proc Natl Acad Sci U S A. 2003 Apr 15;100(8):4435-9. doi:10.1073/pnas.0830026100  
b) Schäffer L (2006) Pharmaceutically active insulin receptor-modulating molecules. PCT Int Appl WO2006018450

# TAQIQLANGAN USULLAR

## M1. Qon va Qon Tarkibini Manipulyatsiya Qilish

- Qon yoki uning tarkibiy qismlarini (masalan, plazma, qizil qon tanachalari, oq qon hujayralari, trombotsitlar va periferik qon ildiz hujayralari), shu jumladan aferez orqali donorlik qilish, agar u faoliyat yuritayotgan mamlakatning tegishli tartibga solish organi tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan qon yig'ish markazida amalga oshirilsa, taqiqlanmaydi.

## M3. Gen va Hujayra Dopingi

- Aniqroq bo'lish uchun kichik tahririyl o'zgarishlar kiritildi.

## MUSOBAQA DAVRIDA TAQIQLANGAN MODDALAR VA USULLAR

### TAQIQLANGAN MODDALAR

#### S6. Stimulyatorlar

- Gidrafinil (floreanol) S6.B dan S6. A almashtirildi, chunki bu modda modafinildan kuchliroq va tibbiy foydalanish uchun litsenziyalanmagan.
- Ba'zi stimulyatorlarga misol sifatida midodrin va tesofenzin qo'shildi.
- Guanfasin taqiqlangan guruhdan chiqarildi.

### AYRIM SPORT TURLARIDA TAQIQLANGAN

#### P1. Beta-Blokatorlar

- Xalqaro chang'i va snoubord federatsiyasi (FIS) tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib, chang'i/snoubordda sakrash, havo fristayli/hafpayp va snoubord hafpayp/Big Air kabi yo'naliishlar Ro'yxatdan chiqarib tashlandi.

### MONITORING DASTURI

- Fentanil va tramadolni musobaqadan tashqari vaqtarda ishlatilishini nazorat qilish uchun qo'shildi.

\* Avvalgi o'zgarishlar va tushuntirishlar haqida ko'proq ma'lumot olish uchun, iltimos, taqiqlangan ro'yxat haqida tez-tez so'raladigan savollarni quyidagi websaytlardan tekshiring: <https://www.wada-ama.org/en/prohibited-list#faq-anchor>.